

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM HUJJATLARIGA  
O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH TO‘G‘RISIDA (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING “MA’NAVYIY-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH  
VA SOHANI RIVOJLANTIRISHNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH TO‘G‘RISIDA”  
2017-YIL 28-IYULDAGI PQ-3160-SON QARORI)**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qaroriga muvofiq:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **ilovaga** muvofiq ayrim hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu Farmonga muvofiqlashtirsinlar.

3. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi X.M. Sultonov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 28-sentabr,  
PF-5194-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-sentabrdagi PF-5194-son **Farmoniga**  
**ILOVA**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yil 30-apreldagi PF-6218-sonli **Farmoniga** asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)*

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-fevraldagi PF-4944-son Farmoniga **7-ilovaning** 33-bandi “Mas‘ul ijrochilar” ustunida:

a) “N.Qosimov (Ma‘naviyat targ‘ibot markazi)” so‘zlari “A. Qodirov (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) “A. Mavulov (Milliy g‘oya va mafkura markazi)” so‘zlari chiqarib tashlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoniga **8-ilovada**:

a) 99 va 290-bandlardagi “Ijro uchun mas‘ullar” ustunidagi “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) 101-banddagi “Ijro uchun mas‘ullar” ustunidagi “Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

v) 271-banddagi “Ijro uchun mas‘ullar” ustunidagi “Ma‘naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

g) 275-banddagi “Ijro uchun mas‘ullar” ustunidagi “Milliy g‘oya va mafkura milliy amaliy markazi” va “Respublika Ma‘naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 291 va 319-bandlardagi “Ijro uchun mas’ullar” ustunidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” va “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoniga [ilovada](#):

33-banddagi “Mavrulov A.A. — Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi rahbari” so‘zlari chiqarib tashlansin.

34-banddagi “Qosimov N.U. — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari v.v.b.” so‘zlari “Qodirov A.K. — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida” 2006-yil 20-iyundagi PQ-381-son [qaroriga](#) 3-ilovaning o‘n to‘rtinchi xatboshisidagi “N.U. Qosimov — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari v.v.b.” so‘zlari “A.K. Qodirov — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzurida muqaddas qadamjolarini saqlash va obod etish xayriya jamg‘armasini tashkil qilish to‘g‘risida” 2008-yil 7-avgustdagi PQ-938-son qaroriga [1-ilovaning](#) o‘ninchi xatboshisidagi “M. Hojimatov — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari” so‘zlari “A. Qodirov — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-martdagi PQ-2829-son qaroriga [3-ilovaning](#) 4-bandi “Mas’ul ijrochi” ustunidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” va “Respublika Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son qaroriga [4-ilovaning](#) 19-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Kodirov A.K. — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari”.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(9-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yil 30-apreldagi PF-6218-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)*

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyuldagi PQ-3138-son qarorida:

a) 1-ilovada:

44 — 48-bandlarning “Mas’ul ijrochilar” ustunidagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi (N. Qosimov)” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (A. Qodirov)” so‘zlari bilan almashtirilsin;

48-bandning “Mas’ul ijrochilar” ustunidagi “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi (A. Mavrulov)” so‘zlari chiqarib tashlansin;

b) 2-ilovada:

IV bo‘limning 1-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3-banddagi “Qosimov N.U. — Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi rahbari v.v.b.” so‘zlari “Qodirov A.K. — Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari” so‘zlari bilan almashtirilsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son qarori [11-bandidagi](#) “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining yigirma besh yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-iyundagi F-4969-son Farmoyishiga **1-ilovada**:

13-banddagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

27 va 33-bandlardagi “Ma’naviyat targ‘ibot markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin;

34-banddagi “Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi”, “Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi” so‘zlari “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

*(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017-y., 06/17/5194/0032-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son)*